

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

RUHIYAT KASHFIDA IJODKORNING MAHORATI

Umarova Nuriniso Rahimovna
*Jizzax davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Abdulla Oripovning vafotidan so‘ng chop etilgan “Shoirning tug‘ilishi” she‘riy to‘plamiga kiritilgan she‘rlarida insonning ruhiy holati, qalb kechinmalari yoxud o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan qadriyatlar tasviri haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: inson, ruhiy olam, kechinma, tuyg‘ular, dard, alam, vafo, holat.

Аннотация В данной статье речь идёт о великом представителе узбекской литературе Абдуллы Орипова, его поэтического сборника «Рождение поэта» о опубликованном после его смерти, в котором раскрыты душевные переживания, духовные мир и ценности узбекского народа.

Ключевые слова: человек, духовный мир, мышление, опыт, чувства, боль, верность, состояние.

Abstract This article defines the mental state of a person, the experiences of the heart, or the unique characteristics of the Uzbek people in the poetry collection named “The Birth of a Poet” by one of the leading representatives of Uzbek literature, Abdulla Oripov which is published after his death.

Keywords: human, spiritual world, thoughts, experience, pain, grief, feelings, situation

She‘riyat tuyg‘ular va g‘oyalar olamidir. Bu dunyoda hislar va ohang ustuvordir. Qalbdan isyon bo‘lishiga sabab bo‘lgan, holatlar va vaziyatlarga mos ravishda so‘zlarni ma‘nosini teran anglagan holatda tanlash va bu so‘zlarni ruhning inju-javohirlari bezash va so‘zga qayta jon ato etish, jonlantirish ijodkor-shoirning talantidan darakdir. Zero, qalbdan chiqqan bitiklarga bevosita qalblarga yetib boradi va ko‘ngil mamlakatini o‘z lashkarlari bilan zabt etadi.

Abdulla Oripov tadqiqotchilari uning ijodida ruhiyat tasviri masalasida o‘zlarining bir qator ilmiy izlanishlarini amalga oshirishgan, lekin adibning vafotidan so‘ng chop etilgan “Shoirning tug‘ilishi” to‘plamiga kiritilgan bitiklar masalalasiga fanda hali atroflicha to‘xtalinmagan. Zero, ijodkor shaxsiyati ruhiyatini ochishda, badiiy til imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini o‘rganish uning poetik mahorat qirralarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Har qanday shoir ijodining yetakchi xususiyatlari, o‘ziga xos badiiy olami, uslubi, ruhiyat talqinidagi mahorati bevosita u yaratgan poetik obrazlarga ham bog‘liq holda namoyon

bo‘ladi. Zero, shoirning ijodkorlik mahoratini belgilab beradigan muhim unsurlaridan biri bo‘lmish poetik obrazda shoirning ruhiy olami, go‘zallikni anglashi, olam voqealari va odamlar xatti-harakatiga munosabati asosida yuzaga kelgan qalbning tug‘yoni o‘z ifodasini topadi”.³⁶⁹“Chinakam san’at uchun, ayniqsa, she’riyat uchun xarakterli bo‘lgan asosiy omil lirik “men”ning ruhiy olamidir. Ruhiy borliqsiz har qanday mazmun o‘likdir. Lirik qahramonning murakkab, ziddiyatli, turfa xil to‘lg‘onishlarga, his-tuyg‘ularga, ehtirolarga boy bo‘lgan qalbisiz she’riyat chinakam badiiyat namunasiga aylanishi qiyin.”³⁷⁰Jumladan, ramziy mazmun asosiga qurilgan “Gul va shabnam” she’rida she’rxon bir qarashda vaziyatga tashqi tomondan baho bersa-da, lekin tasvirlanayotgan hodisada ulkan hayotiy falsafa yashiringanki, shoir ruhiyatiga kuchli ta’sir qilib mana shunday go‘zal bitikning dunyoga kelishiga sabab bo‘lgan, albatta, mutoala jarayonida bu tuyg‘ularni teranroq his etish imkonini beradi:

Gul husniga ko‘pdandir shabnam –
Bo‘lgan ekan oshiq, beqaror.
Unga har tong so‘ylarkan rozin,
Bo‘lgil, derkan, menga vafodor.
Vafosizning “shirin” so‘ziga
Yuzin ochib, ko‘ngankan gul ham,
Quyosh chiqqach (gul vafodori)
Zumda g‘oyib bo‘larkan shabnam.
Shundan buyon gulni rom etmoq
Bo‘lib, shabnam har tong kelarmish.
Bevafoni rashk etib oftob,
Gul yuzidan uni quvarmish.³⁷¹

Gul va shabnam poetik obrazi orqali shoir jamiyatimiz uchun naqadar zarur va noyob vafo, sadoqat fazilatlarini ramziy timsollar orqali mohirlik bilan tasvirlaydi va gul – mashuqa, shabnam- vafosiz oshiq, quyosh esa vafo timsoli sifatida gavdalanadi. She’rda peyzaj, tabiat manzarasi ifodlangandek ko‘rinsa-da, shoir tabiat va insoniyatni qiyosiy holda tasvirlab hozirgi zamonaviy hayotimizda ham dolzarb bo‘lgan muammoni shoirona tafakkur bilan aks ettiradi. Sof lirik she’rlar esa o‘z tabiati va mohiyatiga ko‘ra tom ma’nodagi “psixologik poeziyadir”³⁷² (E.Mejelaytis). Xoh nasriy asar bo‘lsin, xoh nazmiy asar bo‘lsin asardagi ruhiy holat kitobxonga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi, bu esa psixologiya nuqtayi nazaridan qarasak, inson tuyg‘ularining yuqumligining isbotidir, lekin bu hislar muayyan shaxsga, ya’ni ijodkorga tegishli bo‘ladi. Har qanday holatda bu tuyg‘ular biz uchun begona mutoala jarayonida yoki bir necha daqiqa yoki soatlar davomida bu tuyg‘ular kitobxonni asir etadi yoki

³⁶⁹ Umirzoqova N Usmon Nosir she’riyatida ruhiyat tasviri. Filol.Fan.nom...dis. – Toshkent. 2005. B.7-8.

³⁷⁰ Umirzoqova N Usmon Nosir she’riyatida ruhiyat tasviri. Filol.Fan.nom...dis. – Toshkent. 2005. B.10.

³⁷¹ Abdulla Oripov “Shoirning tug‘ilishi” .- Toshkent: Adabiyot, 2021. – B.72.

³⁷² E.Mejelaytis. Tungi kapalaklar. Kamalak. – Toshkent: “Yosh gvardiya”, 1989

o‘z domiga tortadi, ammo “o‘ziniki” deb qabul qila olmaydi. “Ijodkor mahoratining muhim sharti” (A.Qahhor) bo‘lgan ruhiyat tahlili A.Oripov she‘riyatida qanday aks etadi, uning bu sohada o‘ziga xosligi nimada? Avvalo shuni qayd etish kerakki, shoir ruhiyat tahlili turli yo‘nalishlarda zohir bo‘ladi. “Shoirning tug‘ilishi” to‘plamidan joy olgan she‘rlari bo‘yicha tadqiq qilinsa, A.Oripovning “sehrli shamchirog‘i” mazkur nazmiy namunalarda quyidagi toifa kishilar ichki olami, qalb kechinmalarini yoritishga qaratilgandir:

1. Tabiat hodisalar, go‘zalliklari sabab yuzaga kelgan ruhiy holat tasviri
2. Insonning eng ichki, eng nozik ruhiy holatlari tasviri
3. Tabiat va inson qiyosi natijasida yuzaga kelgan ruhiy holat tasviri

Inson ruhiy dunyosi – bu tubsiz ummon, lekin tashqi dunyoning ko‘plab muammolari insonning ichki dunyosiga, qalbiga yo‘l topish, ruhiyatini anglash orqali hal etiladi. Abdulla Oripov ana shu ijodiy an‘anani mahorat bilan davom ettirgan ruhiyat musavvirlaridandir. Abdulla Oripov she‘rlaridagi ijodkor shaxsiyati kamalakning ranglari kabi turfa xildir va bu holatni “Shoirning tug‘ilishi” to‘plamidagi she‘rlardagi ijodkor shaxsini tahlil qilish jarayonida guvoh bo‘lish mumkin. Jumladan, vatan haqidagi “Vatan”, “Yurt sevgisi”, “Maftungman”, “Ona tuproq” she‘rlarida vatan uchun fidoiy farzand bo‘lib uning bor go‘zalliklaridan ilhomlanadi, zavqlanadi, maftun bo‘ladi, “Nozli yor”, “Bilaman sevganing men emas”, “Qo‘zg‘ama, qalbmida nelar borligin”, “Aldangan oshiq” kabi bitiklarda muhabbat dardiga muhtalo bo‘lgan va iztirob chekayotgan shaxs ichki kechinmalari aks ettiriladi, “Kuz she‘ri”, “Ko‘klam”, “Bahor” kabi she‘rlarida esa fasl tarovati, go‘zalliklari va bu fasllarning o‘zigagina xos xislatlari sabab ijodkor shaxsiyatida sodir bo‘lgan ruhiy holatlar, nozik kechinmlar rangli buyoqlarda tasvirlangan. She‘r ma‘lum bir vaqtdagi yoki ma‘lum bir jarayonlar ta‘siri natijasida ijodkorning aynan mana shunday holatlarga ichki munosabati o‘laroq dunyo yuzini ko‘radigan turli xil ruhiy jarayonlarning mevasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, Abdulla Oripov lirik qahramoni ruhoniyligi jamiyatdagi turli ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy masalalarga, ya‘ni davr, insoniyat uchun muhim bo‘lgan muammolarga befarq qarab tura olmaydi, bu kabi bitiklarda adibning “insoniy meni” va “ijodiy meni” birlashgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, “Hayot falsafasi”, “Ateist”, “Tanqidchiga”, “Ko‘zi ochiq ketdi dunyodan”, “Qismat”, “Chumolilar” kabi jamiyat, insoniyat uchun asrlar davomida dolzarb bo‘lgan, ijodkor shaxsiyatini junbushga keltirgan davr muammolari qalamga olinadi va insoniyat ogohlikka da‘vat etiladi. G‘oyaviy-badiiy darajasi yuksak har qanday she‘r hayot qarama-qarshiligi, turmush ziddiyatlari va qismat murakkabliklari sabab tug‘iladi. Fikrimizning isboti sifatida “Hayot lasafasi” she‘riga nazar tashlasak,

Ba‘zan o‘tar edi lipillab ko‘pik,
Shishingan zotlarday bohavo, yengil.
Asli-ku, beqadr baayni tupik,
Asli-ku, yo‘q bo‘lar tegib o‘tsa yel!
Olis-la nenidir ilg‘arkan nazar,

Qiziqishim ortib tikildim atay.
Lopillab kelardi, ko‘rdim, alhazar,
Bir itning o‘ligi, qorni tepaday!
Tomoq ilinjida ustidan ketmay,
G‘ujg‘on o‘ynab borar xira pashshalar.
Ko‘ngil chidamoqqa bardoshi yetmay,
Ne ajab, bu holdan ag‘darilsa gar!
Xayriyat, qorasi o‘chdi batamom,
Meni band ayladi boshqa muammo:
Tobakay yo‘lida etar u davom,
Tobakay bulg‘anar jonfizo daryo?!
Do‘stlarim, poklanish emasdir oson,
Do‘lona qaydadir chiqmasang toqqa!
Poklanish mujdasin anglatar tug‘yon,
Faqat to‘lqin otar uni qirg‘oqqa.
Madad, ilhom berdi daryo ko‘rigi,
Bir taqqos chaqnadi – yorishdi ko‘ngil:
Ul nopok kimsalar – itning o‘ligi,
Davru davronlari turguncha dovul!

She‘r kitobxonni qanchalik og‘ir va fojeali hayot manzarasi bilan bilan yuzma-yuz qilmasin, oxiri esa bu dunyoda har doim yaxshilik yomonlikning ustidan g‘olib bo‘lishi muqarrarligi haqida aqidani she‘rxon qalbiga hayajonli tarzda muhrlashi bilan yakunlanadi. Ijodkor ruhiyati jamiyatdagi nohaqliklardan qanchalik fig‘oni falakka chiqmasin, uning qalbida yorug‘likka, yaxshilikka haqiqatga nisbatan umid hech qachon so‘nmaydi, shuning uchun ham shoirlarni “yarim avliyolar” deyishadi. Abdulla Oripov lirik qahramoni ruhiyatini ezgan, achchiq haqiqatlarni obrazli ifodalashga jur‘at topa bilgan, jamiyatdagi adolatsizliklardan qalbi zada, ruhiyati quvonchga tashna obrazdir.

Xulosa o‘rnida, E.Mejelaytisning “She‘riyat o‘z asri hodisalari, o‘z davri g‘oyalari bilan to‘yingandagina boy va ahamiyatlidir”³⁷³, degan fikrlari ayni bugunning she‘riyati, Abdulla Oripov she‘riyati haqida aytilgandek, go‘yo, qolaversa, Abdulla Oripov ijodida ijtimoiy-ma‘naviy hayotda yuz beradigan voqea-hodisalarga ruhiyat musavviri sifatida badiiy munosabat bildirish asosiy tamoyillaridan biri ekanligini ham kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. E. Mejelaytis. Tungi kapalaklar. Kamalak. – Toshkent: “Yosh gvardiya”, 1989
2. Aliyev Bobonazar Ro‘ziqulovich Hozirgi zamon o‘zbek she‘riyatida psixologizm muammosi (70-80-yillar) Filol.Fan.nom...diss. – Toshkent. 1994. B

³⁷³ Eduardas Mejelaytis. She‘r -inson ruhi. // O‘zas., 1981, 12-son

3. Abdulla Oripov “Shoirning tug‘ilishi” .- Toshkent: Adabiyot, 2021. – B.72.
4. Umirzoqova Nafisa Tursunovna Usmon Nosir she‘riyatida ruhiyat tasviri. Filol.Fan.nom...dis. – Toshkent. 2005. B.7-8.